



## XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 28-fevral

VI-85-53-12-177-K/24

Shovot tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2024-yil 18-yanvar kuni “2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari” to‘g‘risida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari-investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i M.Yo‘ldashovning 2023-yilda investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan hisoboti hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni tasdiqlash to‘g‘risida.**

Tumanda investitsiya dasturlari 2023-yilda hududiy dasturlar doirasida qiymati 79,5 mln.doll bo‘lgan jami 95 ta loyihani amalga oshirib, 2 622 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Jumladan,

Sanoat yo‘nalishida qiymati 68,3 mln.doll bo‘lgan 32 ta loyihada 2 273 ta ish o‘rni;

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida qiymati 2,1 mln.doll bo‘lgan 13 ta loyihada 67 ta ish o‘rni;

Xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida qiymati 9,1 mln.doll bo‘lgan 50 ta loyihada 322 ta ish o‘rni.

Jumladan:

“ADORI TEX” MCHJ tomonidan umumiyligi qiymati 15 mlrd so‘mlik “tikuv-trikataj mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasini tashkil qilib 120 nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi.

“ASILBEK TIBBIYOT MAHSULOTLARI” MCHJi tomonidan umumiyligi qiymati 4 mlrd. so‘mni tashkil etgan “Tibbiyat dokosini ishlab chiqarish” loyihasini tashkil qilib 10 nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Shuningdek, sanoat yo‘nalishidagi yirik loyiha “Textile Finance Horezm” MChJ QQ tomonidan amalga oshirilishi belgilangan “Melanj ip-kalava va kompakt ip-kalava mahsulotlarini ishlab chiqarish” loyihasi doirasida 54 mln. dollar investisiyalar o‘zlashtirilishi hisobiga, 500 nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Buning natijasida, 20 mln. dollarlik qo‘srimcha eksport zanjiri yaratish va tumanni eksport salohiyati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120 % ga oshirildi.

2024-yilda qiymati 85,6 mln. dollar bo‘lgan 74 ta loyiha ishga tushirilib, 1 477 ta yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Xususan:

Sanoat yo'nali shida qiymati 79,8 mln.dollar bo'lgan 40 ta loyihada 1 166 ta ish o'rni;

Qishloq xo'jaligida qiymati 0,3 mln.dollar bo'lgan 8 ta loyihada 40 ta ish o'rni;

Xizmat ko'rsatishda qiymati 5,3 mln.dollar bo'lgan 26 ta loyihada 271 ta ish o'rni ishga tushuriladi.

Misol uchun, Shovot tumanidagi "Arta tex" MChJ tomonidan qiymati 13,5 mlrd.so'm bo'lgan Tikuvchilikni tashkil qilishni kengaytirish loyihasi ishga tushirilib, 150 ta ish o'rni yaratiladi. Tumandagi "Umida" F\X tomonidan qiymati 15,0 mlrd.so'm bo'lgan un tegirmoni tashkil qilish loyihasi ishga tushirilib, 20 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, import hajmi yuqori bo'lgan 25 turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 18,7 mlrd.so'm bo'lgan 7 ta loyiha ishga tushirilib 4 turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Tumanda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish to'g'risida tumanda 2023-yilda jami 23,7 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlarni o'zlashtirilib, yillik rejaga nisbatan 109 foizga bajarildi.

Xususan, tumandagi "Tekstil Finans Horezm" MChJ tomonidan 54 mln. dollarlik "Melanj va kompakt ip-kalava mahsulotlarini ishlab chiqarish"ni tashkil etish loyihasi amalga oshirilib, 2023-yilda 23,7 mln dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi va 500 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

2024-yilda 50 mln dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish bo'yicha asosiy vazifalarni belgilab oldik.

"Xorazm shisha idishlari" MChJ (xorijiy hamkor AQSh davlati "Tex Group, INC" kompaniyasi) tomonidan qiymati 22,0 mln dollarlik yillik 110 mln dona shisha idishlari ishlab chiqarish loyihasi doirasida joriy yilda 22,0 mln dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

"Uztex Group" MChJ tomonidan qiymati 9,0 mln dollarlik yillik 7 mln dona tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi doirasida joriy yilda 9,0 mln dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Rossiya davlatining NPO "Biotex Alyans" kompaniyasi tomonidan qiymati 18,0 mln dollarlik dorivor o'simliklarni yetishtirish va undan dori-darmon ishlab chiqarishni tashkil etish. doirasida joriy yilda 18,0 mln dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

"M-Ali Group" MChJ tomonidan qiymati 1,0 mln dollarlik "Komirdan briket ishlab chiqarish" doirasida joriy yilda 1,0 mln dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Eksport bo'yicha; 2023-yil uchun jami 65,9 mln. dollarlik mahsulotlar eksportini amalga oshirish belgilangan bo'lib, amalda 71,2 mln. doll. mahsulotlar eksporti amalga oshirildi, belgilangan reja 108,0 foizga bajarilib 2022-yilga nisbatan o'sish surʼti 124,0 foizni tashkil qildi.

Eksport geografiyasiga 2 ta yangi davlatlar (Polsha, Germaniya) qo'shilib 10 taga yetkazildi (asosiy hamkor davlatlar Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy davlatlari hisoblanadi).

Shuningdek, ushbu davlatlarga 12 dan ortiq turdag'i mahsulotlar, jumladan 5 turdag'i yangi mahsulotlar eksportga chiqarilgan.

2024-yilda 88,3 mln dollarlik mahsulotlar eksportini ta'minlashni rejalashtirilgan.

Jumladan:

Sanoat mahsulotlari – 80,5 mln. doll.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – 7,8 mln. doll.

Ushbu reja ko'rsatkichni quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi:

"Xorazm Shisha Idishlari" МЧЖ tomonidan "shisha idishlari" 1,5 mln.dollar.

"Textile Finance Khorezm" МЧЖ КК tomonidan "ip kalava" 27,4 mln. dollar.

"Shovot silk" МЧЖ tomonidan "ipak va ipak mahsulotlari" 1,6 mln. dollar.

"Uztex Group" МЧЖ tomonidan "tayyor to'qimachilik mahsulotlari" 45 mln. dollar.

"ARTATEX" МЧЖ tomonidan "tayyor to'qimachilik mahsulotlari" 5 mln. dollar.

"SHOVOT AGRO FRUIT" МЧЖ tomonidan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari" 5,9 mln.dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshiriladi.

Shu yuzadan tuman hokimning o'rinnbosari - tuman investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo bo'limi boshlig'ining hisobotini tinglab, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

## **Q A R O R Q I L A D I:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2024-yil 18-yanvar kuni "2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik yo'naliishlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari" to'g'risida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tuman hokimining o'rinnbosari-investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i M.Yo'ldashovning 2023-yilda investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya loyihibalarini amalga oshirish yuzasidan hisoboti hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni tasdiqlash to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda 2024-yilda amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar ilovaga muvofiq ma'qullansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosari (S.Saidov), tuman hokimning o'rinnbosari - tuman investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo bo'limi boshlig'i (M.Yo'ldashov), tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari (B.Otajanov), tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari (M.Quranbayev), tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinnbosari (N.Boboniyazov) hamda bo'lim boshliqlari va tashkilot rahbarlariga:

-tumanda 2024-yilda investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya loyihibalarini amalga oshiradigan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash;

- har oyda tasdiqlangan reja asosida joylarga chiqib, yangi ish o'rinxarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o'rganish;

- tumanda 2024-yilda amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar dasturiga muvofiq maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini to'liq ta'minlash, yetakchi tarmoqlarda iqtisodiyotni samarali rivojlanishiga zamin bo'luvchi o'sish sur'atlarini ta'minlash masalasini doimiy nazoratga olish;

- tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahallalar hududida belgilangan qurilish ta'mirlash, obodonlashtirish ishlarini, shuningdek, "Yangi O'zbekiston" massivini qurilishi, "Obod qishloq" dasturi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi ijrosini ta'minlash choralarini ko'rib borish;

- qishloq va suv xo'jaligi sohasida tumanda tegishli ekin maydonlarida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orishni yo'lga qo'yish orqali suv resurslarini tejash, shuningdek ochiq tanlov asosida ekin maydonlarini uzoq muddatli ijaraga berish orqali ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash choralarini ko'rib borish;

- ijtimoiy sohada aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, turmush darajasini yaxshilash, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, tuman maktabgacha va maktab ta'limi sohasida ta'lim sifatini oshirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sportni ommalashtirish choralarini ko'rib borish;

- tumanda 2024-yilda amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirda belgilangan vazifalarini tizimli amalga oshirish va amalga oshirilgan ishlar natijadorligi yuzasidan hisobotlarini har chorak yakuni bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritib borilsin.

#### 4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- hududlarda yangi ish o'rinxarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish maqsadli ko'rsatkichlarining to'liq belgilangan muddatlarda bajarilishi ustidan deputatlik nazoratini o'rnatish;

- yangi ish o'rinxarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish maqsadli ko'rsatkichlarini bajarmagan tegishli mutasaddilarga deputatlik so'rovlarini yuborish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot kotibi (S.Yo'ldashov)ga 2024-yilda investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya loyihalarni amalga oshiradigan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar (tadbirlar)ni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib, muntazam ravishda yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi G.Dosova hamda tuman hokimi o'rinxosiri M.Yo'ldashov zimmasiga yuklatilsin

#### 7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



XOLBOYEV OYBEK  
MADAMINOVICH

Xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining  
2024-yil 28-fevraldag'i  
VI-85-53-12-177-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Shovot tumani hokimining o'rribbosari - investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i  
Yo'ldashov Mardonbek Nuraddinovichning 2024-yilga mo'ljallangan  
ISH REJASI**

Nº	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Tegishli mas'ullar
<b>I. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish.</b>			
1.	Joriy yilda 50,0 mln. AQSh doll miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko'rish.	Yil davomida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, savdo-sanoat palatasasi Shovot tumani bo'limi, tadbirkorlik subyektlari
2.	Tumanga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash, tashkil etiladigan xalqaro investitsion forumlarga mahalliy investorlarning ishtirokini ta'minlash.	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, savdo-sanoat palatasasi Shovot tumani bo'limi
3.	Hududiy va tarmoq loyihalari doirasida investitsiyalarning, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sifatli va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishi holatini, amalga oshirilishi yuzasidan vujudga keladigan muammo va kamchiliklar sabablarini tahlil qilib, qoloqliklarning yechimi bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash va amaliy yordam ko'rsatish.	Har chorak yakunida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, savdo-sanoat palatasasi Shovot tumani bo'limi
4.	Dastur prognoz parametrlari bajarilishi holatini tizimli monitoringi va har oylik muhokamasini, shuningdek,	Har oy yakunida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, savdo-sanoat palatasasi Shovot tumani

	loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish bo'yicha zarur choralar ko'rlishini ta'minlash.		bo'limi
--	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--	---------

## II. Davlat va hududiy investitsiya dasturlaridagi loyihalarni o'z vaqtida va to'liq ishga tushirilishini ta'minlash.

5.	Hududiy investitsiya dasturi doirasida <b>71 ta</b> loyihalarni ishga tushirish, jumladan: - sanoat sohasida <b>37 ta</b> ; - xizmat ko'rsatish sohasida <b>26 ta</b> ; - qishloq xo'jaligi sohasida <b>8 ta</b> ;	Belgilangan grafik asosida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
6.	Hududiy investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga joriy yilda <b>1 462 ta</b> ish o'rni yaratish: - sanoat sohasida <b>1 151 ta</b> ish o'rni; - xizmat ko'rsatishda <b>271 ta</b> ish o'rni; - qishloq xo'jaligida <b>40 ta</b> ish o'rni.	Yil yakuniga qadar	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
7.	Hududiy investitsiya loyihalari doirasida <b>1 trln. 085 mlrd. so'm</b> mablag'lar o'zlashtirilishini ta'minlash.	Yil yakuniga qadar	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
8.	Chet davlatlardan kelayotgan import mahsulotlarini tahlil qilish, importni qisqartirish maqsadidi <b>3 ta</b> mahalliylashtirish loyihalarini ishga tushirish va <b>20,7 mlrd. so'mlik</b> mahsulot ishlab chiqarish.	Yil yakuniga qadar	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
9.	"Yoshlar tadbirkorlik va sanoat zonasi" va "Kichik sanoat" zonalarini elektron savdolarga chiqarish hamda ushbu zonalarda loyihalarni ishga tushirish.	Yil yakuniga qadar	Tuman qurilish bo'limi, davlat kadastrlari palatasi Shovot tumani filiali, investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tadbirkorlik subyektlari

## III. Eksport faoliyatini rivojlantirish va prognoz ko'rsatkichlari ijrosini ta'minlash.

10.	Umumiy qiymati <b>89,2 mln. AQSh dollar</b> bo'lgan mahsulotlar eksportini amalga oshirish. Jumladan: -sanoat mahsulotlari eksporti – <b>83,0 mln. AQSh doll;</b>	Yil yakuniga	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
-----	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------	---------------------------------------------------------------------------------------------

	-meva-sabzavot mahsulotlari eksporti – <b>6,2 mln. AQSh doll.</b>	qadar	
11.	Eksportyor korxonalar faoliyati va muammolarini doimiy o'rganib borish hamda eksport ko'rsatkichlari ijrosini ta'minlash.	Har oy yakunida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, savdo-sanoat palatasi Shovot tumani bo'limi
12.	Tashqi bozorlarni tahlil qilish va yangi bozorlarni izlab topish va ushbu bozorlarga kirish strategiyalaridan unumli foydalanish.	Har oy yakunida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, savdo-sanoat palatasi Shovot tumani bo'limi
13.	Doimiy ravishda mahsulot yetishtiruvchi, tayyorlovchi, eksportyor tashkilotlar bilan joyiga chiqqan holda muammolarini o'rganib, ularni tezkor ravishda hal qilish choralarini ko'rish.	Har oy yakunida	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi

**IV. Oldin amalga oshirilgan biroq to'liq quvvatlarda ishlamayotgan korxonalar bo'yicha  
(postmonitoring)**

14.	Korxonani to'la quvvatda ishlashga amaliy yordam ko'rsatish.	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
15.	Moliyaviy holatini tiklash uchun belgilangan tartibda kredit mablag'ini ajratilishida hamda tayyor mahsulotlarini bozorga kiritishda amaliy yordam ko'rsatish.	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari
16.	Yaratilgan ish o'rinalarini saqlanib qolinishi hamda tadbirkorning bankrotlik holatidan chiqishida bevosita amaliy yordam ko'rsatish.	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, tijorat bank rahbarlari, tadbirkorlik subyektlari

**VI. Investitsiya loyihamalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish  
“Loyiha guruh”.**

17.	Tumandagi “Loyiha guruh” faoliyatini tashkil etish.	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
18.z	Tumandagi mavjud qo'shma va xorijiy korxonalar faoliyatini o'rganib, ularning faoliyatini kengaytirishga ko'maklashish	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi

19.	Xorijiy investitsiya ishtirokidagi amalga oshiriladigan istiqbolli investitsiya loyihalari takliflari va ularning biznes-rejalarini ishlab chiqish	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, savdo-sanoat palatasi Shovot tumani bo'limi
20.	Tumanning iqtisodiy salohiyatini chuqur tahlil qilish hamda "drayver"lar – o'sish nuqtalarini aniqlash	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
21.	Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash.	Doimiy	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi